KLINIK LINGVISTIKA TERMINOLOGIYASINING LISONIY XUSUSIYATLARI

Mahmudjonova Xurshida Muxtorjon qizi
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
muxtorjonqizixurshida@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy tadqiqotda tilshunoslikdagi nisbatan yangi ilmiy yo‘nalish bo‘lgan klinik lingvistika terminlarining lisoniy xususiyatlari tadqiq qilndi. Unda soha terminologiyasining tuzilish va derivatsion xususiyatlari tadqiq qilinib, terminlarni milliylashtirish bo’yicha takliflar berildi.*

Kalit so’zlar: *derivatsiya, klinik lingvistika, milliylashtirish, nutq buzilishlari, nutqiy nuqson.*

Аннотация: *В данном научном исследовании изучены лингвистические особенности терминов клинической лингвистики — относительно нового научного направления в языкознании. Исследованы структурные и деривационные особенности терминологии данной отрасли, а также разработаны предложения по созданию национальных эквивалентов терминов.*

Ключевые слова: *деривация, клиническая лингвистика, создание национальных эквивалентов терминов, нарушения речи, речевой дефект.*

Abstract: *This scientific study examines the linguistic features of clinical linguistics terminology, a relatively new field of linguistics. The structural and derivational characteristics of the terminology of this field are analyzed, and proposals are put forward for creating national equivalents of existing terms.*

Keywords: *derivation, clinical linguistics, creation of national equivalents of terms, speech disorders, speech defect.*

Kirish. Klinik lingvistika o‘zbek tilshunosligida zamonaviy soha bo‘lganligi sababli undagi terminlar tizimi o‘zlashmalikka asoslangan. Ularning o‘zbek tilidagi muqobillarini topish birmuncha qiyin. O‘zbek tilshunosligida shakllanib kelayotgan tibbiy lingvistikada tadqiq qilinishi zarur bo‘lgan muammolar anchagina. Shulardan biri tibbiy terminologiya tadqiqi bo‘lib, soha leksikasi, uning tarkibi, boyib borishi, tibbiy termin va atamalarga aloqador masalalar u yoki bu darajada o‘rganilganiga

qaramay, soha lingvistikasida mazkur muammo dolzarbligicha qolmoqda[4, 130-136]. Klinik lingvistikaga oid ayrim terminlar misolida ularning tuzilish xususiyatlarini ko‘rish mumkin.

Asosiy qism. Ma’lumki, ma’lum bir fan doirasida atamalar tanlanar ekan yoki boshqa tillardan o‘zlashtirilar ekan, ularni tavsiflashda so‘z birikmalaridan keng foydalaniladi. Va bu samarali usul hisoblanadi. Qadimgi turkiy tilda boy bo‘lgan turkiy qatlamdagi so‘zlar hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanilmay qo‘ygan. Shu bois, biz ko‘p terminlarni birikmali holda qabul qilishga majburmiz. Masalan, bo‘yin suyagi ichidagi oq ilik “Devonu lug‘otit turk”da *yulun* shaklida keladi. Yoki tana ichida bo‘ladigan yog‘ni *yaqri* shaklida qo‘llanadi. Avval mavjud bo‘lgan sochdan so‘ng qo‘shilgan sochni esa *yätrum,* malham qo‘ydi – *yaqdï,* yallig‘landi – *yaldï, siqilgan,* siqiqqa tushgan odam – *tuyuq*(hozirda depressiyadagi odam deyiladi), kasallik, ruh og‘irligi – *tug‘a,* pay, tomir – *sinkir,* bo‘g‘iq ovoz – *qonur un,* g‘ilay – *qinir* kabi. Ammo hozirda zamonaviy o‘zbek tiliga bu so‘zlarni ommalashtirish anchagina mushkul. Nutq bilan ishlovchi sohalarda ham atamalarni so‘z birikmasi holida ko‘p uchratamiz:

Nutq nuqsoni – Adabiy tilda qabul qilingan nutq normasidan biroz bo‘lsa ham chetga chiqish. Ma’lum nutq buzilishining nutqiy va nutqsiz alomatlari hamda ularning bog‘lanish xarakteri majmuyi.

Nutq buzilishi – Aloqa vositasining buzilishidir, nutq faoliyati mexanizmlarining ishlashi jarayonida buzilishi, normadan og‘ishi.

To‘liq rivojlanmagan nutq – U yoki bu nutq a’zolari ishi yoki umuman nutq tizimi sifat jihatidan eng past darajada rivojlangan nutq. Bunda tilning morfologik tuzilishi, gapning sintaksis qurilishi juda past darajada o‘zlashtiriladi.

Nutq parchalanishi – Nutq ko‘nikmalari va kommunikativ malakaning (bosh miyaning lokal yoki diffuziyali xastalanishi oqibatida) yo‘qolganligi.

Nutq buzilishining patogenezi – Nutqiy faoliyatda buzilishlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga sabab bo‘luvchi patologik mexanizm.

Nutq buzilishini tuzatish – Nutq buzilishi alomatini to‘g‘rilash yoki yengillashtirish.

Lombard effekti – atrofdagi tovush foni hajmining oshishi ta’sirida nutq hajmining ixtiyoriy ravishda oshishi.

Tomatis effekti – bu akustik qayta aloqa yo‘lining chastotali xususiyatlarining ixtiyoriy o‘zgarishi (o‘z ovozini naushnik orqali qayta idrok etishda) – akustik qayta aloqa signali spektrining xususiyatlarini refleksli o‘z-o‘ziga taqlid qilish sodir bo‘ladi[7].

Beixtiyor duduqlanish – ma’lum bir vaqt ichida beixtiyor duduqlanishning paydo bo‘lishi, so‘zlovchining o‘z nutqidagi tovushlarni eshitish vositasi orqali o‘z nutqining tabiiy intensivligidan ustun bo‘lgan intensivlikda idrok etishning kechikishi. Yuqoridagi namunalarning aksariyati moslashuv usulida hosil qilingan. Shuningdek, periferik nutq apparati, psixik travma, somatik zaiflik, nutq terapevti, diffuz atrofiya, chap temporal zona, nutqning motor markazi, Broka markazi, Vernike markazi, otologik muammo, tanglay yorig‘i kabilar so‘z birikmasining turli usullarida hosil qilingan klinolingvistik atamalardir. Albatta, terminlarni tuzilishiga ko‘ra so‘zlarning deyarli barcha holatlarida uchratamiz. Masalan, sodda so‘zlar: dislaliya, alaliya, dizartriya, afferentatsiya, mutizm, disleksiya, natal, mielenizatsiya kabilar. Faoli qo‘shma so‘zlardir: neyropsixologiya, bronxoobstruksiya, fenotip, baroretseptorlar, proprioretseptorlar, etnopatogenetik, logonevroz.

So‘z yasalishi tilshunoslikning alohida bo‘limidir. Har qanday so‘z so‘z yasash qoliplari asosida hosil qilinadi. Hosila lisoniylashib, o‘z qolipidan uzilib ketsa ham, unda bilinar-bilinmas qolip bilan (agar qolip yashovchan bo‘lsa) bog‘lanishlar baribir saqlanib qoladi.

So‘z yasash qolipi ikki uzvdan iborat bo‘ladi:

a) qolipning shakliy tomoni;

b) qolipning mazmuniy tomoni.

Yasama so‘zda ana shu ikki jihat tajallilanadi. Yasalma shaklan va mazmunan ana shu qolipga muvofiq kelsa, uni shu qolip hosilasi sifatida qarash mumkin. Qolipning yasovchi asosi, albatta, mustaqil so‘z, yasovchi vosita qismi esa so‘z ham, qo‘shimcha ham bo‘lishi mumkin. Masalan, qo‘shma, juft so‘z yasash qoliplarida asos ham, vosita ham so‘zdir. Xuddi shu asosda klinik tilshunoslik terminlari ham hosil qilinadi. Inklyuziv lingvistik kommunikatsiya, alkogol natijasida yuzga keladigan nutqiy buzulishlar, bajaruvchi funksiya, ijtimoiy muloqot kabi. Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, klinik lingvistika soha o‘zi yangi soha bo‘lgani uchun uning sodda holatdagi terminlari ko‘pi o‘zlashma xarakterga ega. Qo‘shma va birikma holatidagi terminlar esa ko‘proq uchraydi, zero, bunda oldindan ma’lum tushunchaning yangi qirrasiga e’tibor qaratilayotgani ko‘rinadi.

Terminlarni qabul qilish ikki xil usulda amalga oshiriladi:

a) umumxalq tilidagi so‘zlarning ma’nosini maxsuslashtirish orqali fanga qabul qilish;

b) chetdan so‘z olish orqali.

Klinik tilshunoslik bo‘yicha tadqiqotlarning aksariyati chet davlatlari tomonidan amalga oshirilayotgani bois atamalarni ham ulardan olishimiz ishimizni

yengillashtiradi. Ammo bu holni to‘g‘ri baholab, terminlarni shundayligicha emas, o‘z tilimizda muqobillarini joriy qilgan holda olib kirishimiz sohaning O‘zbekistondagi rivoji uchun juda ham ahamiyatli bo‘ladi. Bu yangi paydo bo‘luvchi kasb egalari: nutq terapevti, nutq maslahatchisi va bemorlar o‘rtasidagi aloqani ham birmuncha tushunarli va mazmunli bo‘lishini ta’minlaydi. Dastlab soha nomini *tibbiy tilshunoslik* deb atash mumkin. Albatta, klinik so‘zi tilimiz leksikasiga qabul qilinganiga ancha yillar bo‘ldi. Shunday bo‘lsa ham, atamaning ma’nosiga e’tibor beradigan bo‘lsak: *klinik* so‘zi *“klinikaga oid, klinika bilan bog‘liq; shifokor yordami (aralashuvi) talab etiladigan, shu yo‘l bilan hal etilishi mumkin bo‘lgan”* ma’nolarini beradi. Lekin tibbiy tilshunoslikda asosan nutq terapevti ish ko‘radi. Bu garchi klinika bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ish markazida nutq terapevti turadi. Jahon minbarlarida uni klinik lingvistika deb nomlash zarar bermaydi. Endi mazkur sohadagi kasalliklardan ayrimlarining nomlarini ko‘rib chiqsak.

Og‘zaki nutqning buzilishi ikki turga bo‘linadi: 1) *bayon qilishning fonatsion ta’minlanishi*, ular nutqning talaffuz tomonining buzilishi. Buni *tashqi buzilish* deb nomlansa ham bo‘ladi. 2) *bayon qilishning semantik-struktura jihatdan ta’minlanishi*, u nutqning uzluksiz yoki ko‘p tovushli buzilishi deb ham ataladi. Qisqacha *nutqning ichki buzilishi* ifodasini berish mumkin.

Disfoniya (afoniya) – tovush aparatining patologik o‘zgarishlari oqibatida fonatsiyaning yo‘q bo‘lishi yoki zaiflashuvi. Ma’nodoshlari: tovushning buzilishi, fonatsiyaning buzilishi, fonotor buzilishlar, vokal buzilishlar. Bulardan *tovush buzilishi* terminini qabul qilsak bo‘ladi. Ammo bu holda atama ma’nosi biroz toraygandek ko‘rinadi.

Bradilaliya – nutqning patologik sekinlashgan sur’ati. Ma’nodoshi: bradifraziya. Artikular nutq dasturining sekinlashgan ishlab chiqarishda namoyon bo‘ladi, markaziy bog‘langan va o‘z tabiatiga ko‘ra organik yoki funksional bo‘lishi mumkin. Buni *nutqning sekinlashuvi* deb nomlash ham mumkin.

Taxilaliya – nutqning patologik tezlashgan sur’ati. Ma’nodoshi: taxifraziya. Artikular nutq dasturining tezlashgan holda amalga oshirilishida namoyon bo‘ladi. Buning uchun *nutqning tezlashuvi* atamasi ham mavjud.

Logonevroz – nutq apparati mushaklarining va ixtiyoriy pay tortishish natijasida sur’at-ohangning buzilishi. Bu *duduqlanish* deyiladi.

Dislaliya – tovush talaffuz qilishning normal eshitish va nutq apparatining saqlangan innervatsiyasi paytida buzilishi. Ma’nodosh sifatida ishlatiladigan variantlari: tili chuchuklik, tovush talaffuzidagi nuqsonlar, fonetik nuqsonlar, fonemalarni talaffuz qilishdagi notekisliklar. Eng yaxshi varianti – *tili chuchuklik*.

Shuningdek, dislaliyaning ichki turlarini ham ko‘rib chiqish mumkin. Talaffuzdagi kamchiliklar o‘z xarakteriga, ma’lum tovushlar gruppasiga tegishli bo‘lishiga ko‘ra dislaliya quyidagi turlarga ajratiladi:

1. **Sigmatizm** (grekcha “sigma” “s” harfining nomini bildiradi) – bunda sirg‘aluvchi (s,z) va shovqinli (sh, j, ch) tovushlar talaffuzida kamchiliklar kuzatiladi. O‘zbek tilida harflarni nomlanmasligini hisobga olsak, dislaliyaning mazkur turini shartli ravishda *“s nuqsoni”* deb yuritish ham mumkin bo‘ladi.

2. **Rotatsizm** (grekcha “ro” harfi nomidan olingan) – r tovushining talaffuzidagi kamchiliklar. Buni *“r nuqsoni”* deyish mumkin.

3. **Lambdatsizm** (grekcha “lambda” harfining nomi, ya’ni “l”) – l tovushining talaffuzidagi kamchiliklar – “*l nuqsoni”*.

4. Til orqa tovushlaridagi kamchiliklar:

Kappatsizm – k tovushining nutqda yo‘qligi: kitob-titob, koptok-topto – *“k nuqsoni”*.

Gammatsizm – g tovushining nutqda yo‘qligi: gul – dul, gilam – dilam – *“g nuqsoni”*.

Xitizm – *“x nuqsoni”*.

Yotatsizm – *“y nuqsoni”*.

Jaranglatish nuqsonlari – jarangli tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar singari.

Rinolaliya – tovush tembri va talaffuzining nutq apparatidagi anatomik-fizologik nuqsonlar bilan bog‘liq holdagi buzilishdir. Ma’nodoshlari: dimog‘ bilan gapirish, palatolaliya. Tushunarli varianti *dimog‘ bilan gapirish*.

Alaliya – bosh miya qobig‘idagi nutq zonalarining bolaning ona qornidagi yoki ilk rivojlanish davrida organ shikastlanishi natijasida nutqning yo‘q bo‘lishi yoki rivojlanmay qolishi. Ma’nodoshlari: disfaziya, erta yoshda paydo bo‘ladigan bolalar afaziyasi, rivojlanish afaziyasi, gunglik. O‘zbekcha variantda *gunglik* deb qo‘llash mumkin.

Afaziya – bosh miyaning muayyan joyi shikastlanishi bilan bog‘liq holda nutqning to‘liq yoki qisman yo‘qolishi. Ma’nodoshi: nutqning buzilishi, yo‘qolishi[1, 52-57]. Bunda qisman yo‘qolishiga nisbatan *nutqning buzilishi*, to‘liq yo‘qolishiga nisbatan *nutqning yo‘qolishi* terminlarini ishlatish mumkin bo‘ladi.

Bu muqobillar, albatta, tavsiyaviy ko‘rinishga ega. Sohaning rivojlanishi va til qonuniyatlari klinik lingvistika terminologiyasiga ham ta’sir qilib, tartibga soladi. Bu borada terminologik tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayupova M.Y. Logopediya.—T.:O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007.—560 b.
2. Cummings L. Clinical linguistics.—Great Britain: Edinburgh University Press, 2008.—XIV-2 p.
3. Mahmud Koshg‘ariy Devonu lug’otit turk.—T., 1963. 234 b.
4. Nazarova S.A. So‘z birikmasi—tibbiy atamalar “bunyodkori”// Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari.—2021.—Buxoro. 1.—№. 2.—B. 130-136.
5. Arxiv.uz. [Elektron resurs]. — URL: https://arxiv.uz
6. Clinical linguistics. Wikipedia: The Free Encyclopedia [Elektron resurs]. — URL: Clinical linguistics
7. Tibbiyot ensiklopediyasi.apk